

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2025-yil 2-sон

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualiflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materialaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsat bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abdullaeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-iyunda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 5
Adadi: 100. Buyurtma: № 116.

Bosmaxona litsenziyasi
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS'UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

Sh. Asadov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Aminjonova – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

B. Murodov – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:
С. Расурова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгоҳ, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz
E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.06.2025.

Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 5. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 116.

Лицензия типографии
от 29.11.2023. № 174626

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгоҳ, дом 37.

**© Ташкентский государственный
юридический университет**

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Сайдов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окулов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор философии по юридическим наукам, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Б. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:
100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz
E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.06.2025.
Paper size: A4.
Cond.p.f: 5.
Units: 100. Order: № 116.

Printing house license
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**

Yangi O'zbekistonda huquqiy madaniyatni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

23 **RAXIMOV DILMURODJON G'ULOMJON O'G'LI**

Davlat xizmati instituti: tushunchasi, mohiyati va shakllanishi

35 **XOLIQOV SARVAR MINGISHOVICH**

Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlashning dolzarb masalalari: O'zbekiston va xalqaro tajriba

41 **USMONOV OTABEK ODILBEK O'G'LI**

Jamoatchilik nazoratini tashkiliy jihatdan raqamlashtirish va uning oldida turgan dolzarb muammolar

57 **ISMAILOV BEKJON SALIHOVICH**

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqiy maqomi konsepsiysi: huquqiy tahlili

65 **TULYAKOV ELDOR**

Korrupsiyaga qarshi kurashishda tahlil markazlarining roli: siyosatni tahlil qilishdan nazoratgacha

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.

XALQARO XUSUSIY HUQUQ

73 **RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH**

Elektron tijorat va logistika: huquqiy ta'minot masalalari

86 **NARZIYEV OTABEK SA'DIYEVICH, NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**

Xitoya sun'iy intellekt va robot-maslahatchilar: tartibga solish xususiyatlari hamda o'ziga xos jihatlari

97 **MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA**

Voyaga yetmaganga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning fuqarolik huquqiy masalalari

109 **INOYATOV NODIRBEK HAYITBOY O'G'LI**

"Vital" va "Sophiya" robotlari – raqamli davrda yangi huquq subyektlari sifatida

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.

HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSİYA

117 **ABDUSAMADOV DILMUROD FARXOD O'G'LI**

Iqtisodiy sud ishlarni yuritish prinsiplari: odil sudlovnning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTİZASI

127 **IBADOVA ANJELIKA ISMATULLOYEVNA**

Tan jarohatlari yetkazish jinoyatlarini tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanishning ahamiyati

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

137 **GAFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA, RAYIMOVA MUNISA NOZIM QIZI**

Sog'liqqa bo'lgan huquqning tamaki chekishga qarshi kurashishdagi roli: O'zbekiston va Avstraliyaning qiyosiy tajribasi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIYA FAOLIYATI

148 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH, ABDUSAMATOVA ZARINA HASAN QIZI**

Fransuz jandarmeriya modeli jamoat xavfsizligi tizimining etalonli sifatida

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА

Современные подходы к формированию правовой культуры в Новом Узбекистане

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

23 РАХИМОВ ДИЛМУРОДЖОН ГУЛОМЖОН УГЛИ

Институт государственной службы: понятие, сущность и формирование

35 ХОЛИКОВ САРВАР МИНГИШОВИЧ

Актуальные вопросы обеспечения жильём военнослужащих Вооружённых Сил: опыт Узбекистана и зарубежных стран

41 УСМАНОВ ОТАБЕК ОДИЛБЕК УГЛИ

Организационная цифровизация общественного контроля и её актуальные проблемы

57 ИСМАИЛОВ БЕКЖОН САЛИХОВИЧ

Концепция правового статуса лиц с инвалидностью: правовой анализ

65 ТУЛЯКОВ ЭЛЬДОР

Роль экспертно-аналитических центров в борьбе с коррупцией: от анализа политики до контроля

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

73 РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ

Электронная коммерция и логистика: вопросы правового обеспечения

87 НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЛЬДИЕВИЧ, НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА

Искусственный интеллект и роботы-консультанты в Китае: характеристика и особенности регулирования

97 МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА

Гражданско-правовые вопросы ответственности за вред, причинённый несовершеннолетнему

109 ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙТБОЙ УГЛИ

Работы Vital и Sophia как новые субъекты права в цифровую эпоху

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

117 АБДУСАМАДОВ ДИЛМУРОД ФАРХОД УГЛИ

Принципы ведения экономических судебных дел: осуществление правосудия исключительно судом

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

127 ИБАДОВА АНЖЕЛИКА ИСМАТУЛЛОЕВНА

Значение использования специальных знаний при расследовании преступлений, связанных с причинением телесных повреждений

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

137 ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА, РАЙМОВА МУНИСА НОЗИМ КИЗИ

Роль права на здоровье в борьбе против табакокурения: сравнительный анализ опыта Узбекистана и Австралии

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

148 ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ, АБДУСАМАТОВА ЗАРИНА ХАСАН КИЗИ

Французская модель жандармерии как эталон системы общественной безопасности

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **MUKHITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**

Modern approaches to the formation of legal culture in New Uzbekistan

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 23 **RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON UGLI**

Public service institution: concept, essence and formation

- 35 **KHOLIKOV SARVAR MINGISHOVICH**

Current issues of providing housing for armed forces personnel: Uzbekistan and international experience

- 41 **USMANOV OTABEK ODILBEK UGLI**

Digitalization of the organizational aspects of public oversight and the pressing challenges it faces

- 57 **ISMAILOV BEKJON SALIHOVICH**

The concept of the legal status of persons with disabilities: legal analysis

- 65 **TULYAKOV ELDOR**

The role of think tanks in combating corruption: from policy analysis to oversight

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 73 **RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH**

E-commerce and logistics: legal support issues

- 86 **NARZIEV OTABEK SA'DIEVICH, NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**

Artificial intelligence and robo-advisors in China: characteristics and features of regulation

- 97 **MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**

Civil law issues of liability for damage caused to a minor

- 109 **INOYATOV NODIRBEK HAYITBOY UGLI**

Vital and Sophia robots as new legal subjects in the digital age

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW.

ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 117 **ABDUSAMADOV DILMUROD FARKHOD UGLI**

Principles of conducting economic court cases: justice is administered solely by the court

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 127 **IBADOVA ANGELIKA ISMATULLOYEVNA**

Importance of using special knowledge in investigating crimes involving bodily injuries

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 137 **GAFUROVA NOZIMAKHON ELDAROVNA, RAYIMOVA MUNISA NOZIM KIZI**

The role of the right to health in the fight against tobacco smoking: comparative analysis of the experience of Uzbekistan and Australia

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 148 **KHUJAMBERDIEV FARRUKH KOMILOVICH, ABDUSAMATOVA ZARINA KHASAN KIZI**

The french model of gendarmerie as a standard of public security system

Kelib tushgan / Получено / Received: 24.04.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 13.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.2./OYDX7938

UDC: 342.72/.73(045)(575.1)

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR HUQUQIY MAQOMI KONSEPSIYASI: HUQUQIY TAHLIL

Ismailov Bekjon Salihovich,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
Huquqiy fanlar kafedrasи katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0001-6765-3821
e-mail: bekjon.4@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari har tomonlama tahlil qilingan. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomi tushunchasi va uning asosiy tarkibiy elementlari – huquq layoqati (yuridik jihatdan huquq va majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyati) hamda muomala layoqati (shaxsning yuridik munosabatlarda ishtirok etish va huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirish qobiliyati) alohida ko'rib chiqilgan. Ushbu elementlarning yuridik va amaliy ahamiyati ko'rib chiqildi, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi teng huquqli mavqeyi muhimligi ta'kidlandi. Shuningdek, maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomiga doir yurtimiz va xalqaro huquqshunoslar tomonidan ilgari surilgan turli fikrlar va yondashuvlar qiyosiy-huquqiy tahlil etilgan. Bu orqali har bir yondashuvning afzalliliklari va zaif tomonlari aniqlanib, xalqaro me'yorlar bilan uyg'unligi ko'rsatilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan mualliflik ta'rifida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomi inson huquqlari, erkinliklari va tenglik prinsiplariga asoslanadi. Ushbu ta'rif zamонавиу huquqiy talablar va xalqaro konvensiyalar bilan hamohang bo'lib, nogiron shaxslarning jamiyatda teng huquqli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, mazkur ta'rifning amaliy qo'llanishi nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga to'laqonli integratsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar, huquqiy maqom, muomala layoqati, huquq layoqati, davlat, ijtimoiy himoya siyosati

КОНЦЕПЦИЯ ПРАВОВОГО СТАТУСА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ: ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Исмаилов Бекжон Салихович,
старший преподаватель кафедры «Юридические науки»
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация. В статье всесторонне проанализированы права, свободы и законные интересы лиц с инвалидностью. Особое внимание уделено понятию правового статуса лиц с инвалидностью и его основным составляющим элементам: правоспособности (способности иметь юридические права и обязанности) и дееспособности (способности участвовать в юридических отношениях и порождать юридические последствия). Рассмотрено юридическое и практическое значение этих элементов, подчёркнута важность обеспечения равноправного положения лиц с инвалидностью в обществе. В статье также проведён сравнительно-правовой

анализ различных научных подходов и взглядов отечественных и международных юристов на правовой статус лиц с инвалидностью. Показаны достоинства и недостатки каждого подхода, а также их соответствие международным стандартам. Предложено авторское определение правового статуса лиц с инвалидностью, основанное на принципах прав человека, свободы и равенства. Это определение соответствует современным правовым требованиям и международным конвенциям и направлено на обеспечение равного участия лиц с инвалидностью в жизни общества. Кроме того, подчёркнута практическая значимость данного определения для полноценной интеграции лиц с инвалидностью в социальную и экономическую сферу.

Ключевые слова: лица с инвалидностью, лица с ограниченными физическими возможностями, правовой статус, дееспособность, правоспособность, государство, политика социальной защиты

THE CONCEPT OF THE LEGAL STATUS OF PERSONS WITH DISABILITIES: LEGAL ANALYSIS

Ismailov Bekjon Salihovich,
Senior Lecturer of the Department of Legal Sciences,
National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

Abstract. The article comprehensively analyzes the rights, freedoms, and legitimate interests of persons with disabilities. In particular, the concept of the legal status of persons with disabilities and its main structural elements - legal capacity (the ability to have legal rights and obligations) and legal competence (the ability of a person to participate in legal relations and create legal consequences) are considered separately. The legal and practical significance of these elements was considered, and the importance of the equal status of persons with disabilities in society was emphasized. The article also provides a comparative legal analysis of various opinions and approaches put forward by domestic and international legal scholars regarding the legal status of persons with disabilities. Through this, the advantages and weaknesses of each approach are identified, and its compliance with international standards is shown. In the author's definition, the legal status of persons with disabilities is based on the principles of human rights, freedoms, and equality. This definition is consistent with modern legal requirements and international conventions and is aimed at ensuring equal participation of persons with disabilities in society. Moreover, the practical application of this definition plays an important role in ensuring the full integration of persons with disabilities into social and economic life.

Keywords: persons with disabilities, persons with limited physical abilities, legal status, legal competence, legal capacity, state, social protection policy

Kirish

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar negizida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomini belgilash va bu orqali soha doirasida olib borilayotgan choratadbirlar samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Shu ma'noda nogironligi bo'lgan

shaxslarning huquqiy maqomi masalasini yuridik jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomi deb mustaqil yoki qonuniy vakillari orqali yuridik prinsiplar asosida o'z huquqlarini amalga oshirishi, o'zgartirishi yoki bekor qilishi, yuridik kafolatlardan foydalanishi, shuningdek, qonuniy majburiyatlarini bajarishga oid huquqiy mezonga aytildi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomi o'z tarkibiga "alohida e'tiborga muhtoj

shaxslarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari, yuridik prinsiplari, yuridik kaflatlari va ularning majburiyatları” kabi bir qator elementlarni qamrab oladi.

Davlat shaxsni huquq subyekti sifatida tan olar ekan, uning huquqiy maqomini ham o’zi belgilaydi. O’z navbatida, shaxs o’z huquq va erkinliklarini ta’minlashda davlatning himoya va tartibga soluvchi funksiyalaridan muntazam foydalanadi. Nogironligi bo’lgan shaxslar huquqiy maqomi tushunchasini klassifikatsiyalashirgan holda o’rganish mazkur tushunchaning huquqiy xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Bu toifa shaxslarning jamiyatda egallaydigan o’rni hamda bajaradigan vazifalari ularga nisbatan belgilanadigan huquqiy maqomning bosh omili hisoblanadi. O’z-o’zidan anglashiladi, qo’shimcha ehtiyojli shaxslar nogironlik holatlarining tibbiy hamda ijtimoiy darajasini ushbu masala omillarining tarkibiy qismi o’laroq namoyon bo’ladi. Jumladan:

- nogironligi bo’lgan shaxslarning kamstilishiga yo’l qo’ymaslik yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ko’rish;
- nogironligi bo’lgan shaxslarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta’minlash;
- nogironligi bo’lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish;
- nogironligi bo’lgan shaxslar huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalari bo'yicha jamiyatda ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
- nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risidagi qonunchilikka rioxha etilishini ta’minlash;
- nogironligi bo’lgan shaxslarning burch va majburiyatlarini rasman qayd etish.

Sanab o’tilgan yo’nalishlar qo’shimcha ehtiyojli shaxslarning huquqiy maqomini belgilashda o’ziga xos ustuvorlik kasb etadi. Shu tariqa nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqiy maqomini bir necha turga bo’lib tahlil

qilish maqsadga muvofiqdir. Quyida ular haqida batafsil to’xtalamiz.

1. Umumiyligi yoki konstitutsiyaviy. O’zo’zidan ma'lumki, nogironligi bo’lgan shaxslar davlat fuqarosi sifatida Konstitutsiyada belgilab qo’yilgan umumiyligi tipdagi huquq va erkinliklardan foydalanadi. Shaxsiy huquqlar misolida: “Yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, so’z erkinligi, diniy e’tiqod erkinligi”. Siyosiy huquqlar misolida: “Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalarga uyushish huquqi, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga ariza, shikoyat, takliflar bilan murojaat qilish huquqi”. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar misolida: “Mulkdor bo’lish huquqi, kasb tanlash huquqi, ijtimoiy ta’minot olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, ta’lim olish huquqi” va hokazo. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ushbu huquqlar umumiylilik kasb etsa-da, nogironligi bo’lgan shaxslar hayot faoliyatini mustahkamlashda muhim o’rin tutadi. Ya’ni umumiyligi konstitutsiyaviy huquqiy maqom subyektning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarmoqlardagi imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

2. Maxsus maqom. Bu yerda asosan nogironligi bo’lgan shaxslarning kasbi va ularning jamiyatda tutgan pozitsiyasi muhim rol o’ynaydi. Misol uchun, shaxs jismoniy nuqsonli bo’lishi mumkin, lekin u faoliyat e’tibori bilan rahbar, o’qituvchi, tadbirkor maqomini o’zida aks ettiradi. Shu ma’noda shaxslar jamiyatda bajaradigan vazifalariga qarab kasbiy maqomga ega bo’lishadi.

3. Individual huquqiy maqom. Bu yerda shaxsning aqliy, sezgi, ruhiy, jismoniy holati asosida kelib chiqadigan, belgilanadigan huquq va majburiyatları muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, nogironlik tibbiy-huquqiy maqom bo’lib, individual maqom turiga mansubdir. To’g’ri, nogironlik maqomi individual maqom sifatida jismoniy nuqsoni mavjud shaxslarga belgilanadi, lekin shaxslardagi jismoniy nuqsonlarning turli-

cha ekanligi e'tibori bilan ulardagi huquqiy maqom ham bevosita o'zgaradi. Misol uchun, ko'zi ojizlar, eshitishida nuqsoni mavjud shaxslar, ruhiy nuqsoni bo'lgan shaxslar va hokazo. Aynan mana shu nuqsonlar oqibatida individual huquqiy maqom turiga kiruvchi nogironligi bo'lgan shaxslar maxsus huquqlarga ega bo'ladi. Ya'ni oila muhitiga bo'lgan huquq, nogironlik belgisi bo'yicha kamsitilishlardan himoyalanish huquqi, ijtimoiy himoya huquqi, ijtimoiy-tibbiy xizmatlardan bepul foydalanish huquqi, jamoat obyektlari, transport vositalaridan qo'shimcha shartsharoitlar asosida foydalanish huquqi, in-klyuziv ta'lim olish huquqi, ta'lim olish shaklini mustaqil tanlash huquqi va hokazo.

Material va metodlar

Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini chuqur tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy-tadqiqot uslublaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ularning huquqiy maqomi va himoya mexanizmlarini har tomonlama o'r ganishdan iborat bo'lib, bu jarayonda ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar qo'llandi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, analiz va sintez metodlari yordamida mavjud nazariy manbalar, xalqaro huquqiy hujjatlar, milliy qonunchilik normalari va amaliy tajribalar tahlil qilindi. Bu metodlar asosida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga doir olimlar, huquqshunoslar, sotsiologlar va boshqa mutaxassislarning ilmiy qarashlari sinchkovlik bilan ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda qiyosiy tahlil metodidan keng foydalanildi. Bu uslub orqali turli davlatlardagi nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining huquqiy jihatdan ta'minlanish holati, ularga yaratilgan sharoitlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari va xalqaro tajribalar o'rganildi.

Tadqiqot davomida shuningdek, prognozlash metodi yordamida mavjud qonun-

chilik va amaliyot asosida nogironligi bo'lgan shaxslarning kelgusidagi huquqiy himoyasi, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligi va davalat tomonidan yaratilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha mexanizmlar bo'yicha ehtimoliy yo'nalishlar ilgari surildi.

Tahlil jarayonida tizimli yondashuv asosida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari jamiyatdagi boshqa ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro aloqada, ya'ni ularning oilaviy, mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi o'rnini aniqlashga harakat qilindi. Funksional yondashuv esa nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari qanday amalgalashishiga oshirilayotganini, bu huquqlar qanday mexanizmlar orqali ta'minlanayotganini tahlil qilishga xizmat qildi.

Yuqorida qayd etilgan metod va yondashuvlar maqolaning ilmiy asoslangan, kompleks va real holatga yaqin tahlilga tayangan holda yozilishini ta'minladi. Shu orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklari ta'minlashda mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashda xos tamoyillar ham muhim o'rinni tutadi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning qadrqimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;
- nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik;
- insonning huquq va erkinliklarini amalgalashishdagi imkoniyatlar tengligi;
- nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;
- obyektlar va xizmatlarning qulayligi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish".

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari kafolatlari to'g'risida so'z yuritganimizda,

aytib o'tish lozimki, kafolatlar bu toifa shaxslar huquqlarini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu boradagi huquqiy kafolatlar ham, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi:

1. Konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar. Bu kafolatlar sirasiga yangi tahrirdagi bosh qonunning 54-55-moddalarida belgilangan huquqiy me'yorlar kiradi. Fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqi va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining davlat tomonidan ta'minlanishi kabi huquqiy me'yorlar konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlarga yaqqol misoldir.

2. Sohaviy huquqiy kafolatlar. Bu kafolatlar O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni va ushbu qonun asosida ishlab chiqilgan qonunosti hujjatlari yordamida ta'minlanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning majburiyatlari umumhuquqiy mazmun kasb etib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida keltirilgan normalar asosida taribga solinadi. Bu majburiyatlar sirasiga: qonunlarga rioya etish, o'zgalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish kabilarni kiritishimiz mumkin. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 57-moddasiga quyidagi norma kiritilgan: "Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'limg olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqiniksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi".

Huquqiy maqom tayinlashda, subyekt tushunchasiga keltirilgan ta'rif aniq bo'lishi tablab etiladi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunda nogironligi bo'lgan shaxslar tushunchasiga ta'rif keltirilgan. Keltirilgan ta'rifa ijtimoiy himoya masalasiga ko'proq urg'u berilgan bo'lib, muhim yuridik jihatlar e'tibordan chetda qoldirilgan. Nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasi ta'rifi ishlab chiqishda huquqiy jihatdan

yondashish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sababi nogironligi mavjud shaxslarga huquqiy maqom berishda ularning konstitutsiyaviy huquq hamda majburiyatlari ayni tushuncha konsepsiyasini ishlab chiqishda alohida o'ringa ega. Bundan tashqari, qonunda aqliy, ruhiy, sensor, jismoniy nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'riflarini ishlab chiqish va ularni toifalashtirish ma'qul ko'rindi. Bizning fikrimizcha, masala mohiyatini ochishda quyidagi olimlarning mulohazalarini chuqurroq tahlil qilishimiz to'g'ri bo'ladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

G.V. Jigunovaning ta'kidlashicha, nogironlik jismoniy nuqsonlar ta'sirida shaxslarning cheklanganlik holatidir. Uning fikricha, nogironlik atamasi o'rnida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxs iborasini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi [1].

Yuqoridagi fikrda tushuntirilishicha, nogironligi bo'lgan shaxslar va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar tushunchalari nazaridagi jihatdan bir xil maqomga ega mazmunitagi mulohaza ilgari surilyapti. Vaholanki, bu holatlar kelib chiqish sabablari va hayot faoliyatini cheklash darajasiga ko'ra xilmassilik namoyon etadi. Shuning uchun bu fikrni qo'llab-quvvatlash, nazarimizda, to'g'ri bo'lmaydi.

Y.R. Yarskaya-Smirnova, E.K. Naberushkinalar esa nogironlik, tibbiy mehnat ekspertizasi komissiyasi byurosiga tomonidan tayinlanadigan hamda maxsus sohaviy qonunlar bilan himoya qilinadigan jismonan cheklanganlik darajasidir, degan fikrni ilgari surishadi [2]. Ushbu fikrni ma'lum bir ma'noda qo'llab-quvvatlash mumkin, biroq mulohazada bildirilgan jismoniy cheklanganlik darajasi mazmunitagi qarashga, bizningcha, qo'shilib bo'lmaydi. To'g'ri, agarki tushunchaga tibbiy nuqtayi nazardan munosabat bildirilganda, yuqoridagi qarashni, ehtimol, qo'llab-quvvatlash mumkin bo'lar edi. O'ylashimizcha, nogironlik huquqiy maqom hisoblanadi. Nogironlik huquqiy maqomining tayinlanishi natijasida bu shaxsning huquq va

erkinliklarida qo'shimcha imtiyozlar yuzaga keladi. Bir so'z bilan aytganda, uning jamiyat-dagi individual maqomi o'zgaradi.

Nogironlikning belgilanishi orqali jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarda maxsus huquqiy maqom yuzaga keladi. K.D. Gaybatov, M.A. Orsxanovaning xulosalariga ko'ra, nogironlik holati shaxs salomatligining tiklanishi mumkin bo'limgan vaziyatlardagina yuzaga keladi. Shaxslardagi nogironlik holatlarining tibbiy mehnat eksper-tizasi komissiyasi tomonidan qayd etilishi ularning fuqarolik jamiyatidagi tibbiy-yuri-dik maqomini belgilaydi [3]. K.D. Gaybatov, M.A. Orsxanovaning mulohazalari bo'yicha, nogironlik holatlari shaxs salomatligining tiklanishi mumkin bo'limgan holatlardagi na yuzaga keladi, biroq biz bu fikrni qo'llab-quvvatlay olmaymiz. Nogironlik holatlari salomatlikning to'liq tiklanishiga imkonsiz vaziyatlarda ham belgilanadi. Ya'ni ko'rish qobiliyatining mutlaqo yo'qolishi yoki ko'rish qibiliyatining jiddiy pasayib ketishida ham belgilanishi mumkin. Darhaqiqat, shaxsda-gi tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan nogironlik holatining qayd etilishi uning jamiyatdagi ijtimoiy-yuridik maqomi ni belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

G.V. Barinovaning ta'kidlashicha, nogironlik, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxsning jamiyatdagi huquqiy maqomini belgilab beruvchi holat hisoblanadi. Bu toifa shaxslarda nogironlik holatlarining aniq belgilanishi ularning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuv-lariga muhim omil bo'lib xizmat qiladi [4].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, nogironlik, aqliy, ruhiy, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqiy holatini belgilab beruvchi tibbiy-yuridik maqomdir.

Ushbu tushunchaga yuridik jihatdan e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu borada bildi-rilgan yondashuvlar kesimida G.V. Barinovaning qarashlarini qo'llab-quvvatlashimiz mumkin. Jismoniy nuqsoni mavjud shaxslar-

da nogironlik holati qayd etilar ekan, pirovar-dida, ularning maxsus huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari rasman belgilanadi. Bu toifa shaxslar huquq va majburiyatlarini qonunan belgilanishi o'ziga xos huquqiy munosabatlар yuzaga kelishini taqozo eta-di. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy munosabatlari ularning huquqiy layoqatini belgilab beradi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy layoqati – subyektning qonun hujjatlari-da mustahkamlangan yuridik huquqqa ega bo'lishi va yuridik majburiyatlarini ifoda etuvchi mezondir. Qo'shimcha ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinlikla-ri va majburiyatlar majmui ularning huquqiy maqomini tashkil etadi. Umuman olgan-da, huquqiy maqom tushunchasi nogironligi mavjud shaxslarning huquqiy holatini tav-siflashda alohida o'rin tutadi. Shu ma'noda qo'shimcha ehtiyojli shaxslar huquqiy maqomini belgilashda huquqiy layoqat va yuridik majburiyatlar muhim jihatlar sanaladi. "Hu-quqiy layoqat" shaxsning hayotiy faoliyati boshlanishi bilan yuzaga keladigan huquqlar majmuidir.

"Yuridik salohiyat deb obyektiv huquq nor-malari tomonidan tan olingen subyektning mustaqil, o'z ongli harakatlari bilan yuridik huquq va majburiyatlarni amalga oshira olish qobiliyatiga aytildi" [5].

X.T. Odilqoriyevning yondashuviga ko'ra, huquqiy layoqat – shaxsning huquq norma-lariga muvofiq subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'la olish qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, huquqiy layoqat jismoniy va yuridik shaxslarning subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'lish imko-niyati, qonunda nazarda tutilgan turli munosabatlarga kirishish qobiliyatidir. Insonlarda huquqiy layoqat ular tug'ilgan paytda paydo bo'lib, vafot etgunicha mavjud bo'ladi [6].

Xulosalar

Ta'kidlab o'tish lozimki, huquqiy salohiyat tushunchasi muomala layoqati tushun-chasi bilan bir xil mazmun-mohiyatga ega

bo'lib, amalda ular bir-birini to'ldirib turadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomi to'g'risida so'z yuritganda aytib o'tish kerakki, huquqiy layoqat va muomala layoqati bu toifa shaxslar hayotida alohida o'ringa ega. Muhimlilik darajasi bo'yicha nogironligi mavjud shaxslarning muomala layoqati quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi.

1. Nuqsonli shaxsning huquqiy layoqatga ega bo'lish vaqt; huquqiy layoqat nuqsonli shaxslarning hayot faoliyatini boshlashi bilan vujudga keladi. Muomala layoqati esa uning balog'at yoshiga yetishi bilan yuzaga keladi. Bu ikki tushunchaning nogironligi mavjud shaxslar hayot faoliyatida muhimligi shundaki, ularning huquqiy maqomlari aynan mana shu toifalarga asosan belgilanadi. Nogironligi mavjud shaxs fuqarolik qonunchiligi bo'yicha 16 yoshda cheklangan muomala layoqatiga ega bo'lsa, 18 yoshidan boshlab to'la huquqli muomala layoqatiga ega sanaladi. Nuqsonli shaxslar misolida muomala layoqatining e'tiborga molik jihat shundaki, ular jismoniy, aqliy, ruhiy cheklanishlari ta'sirida to'la huquqli muomala layoqatiga ega bo'la olmaydilar. Sababi, qo'shimcha ehtiyojli shaxslar ayrim huquqlarini amalga oshirishda bevosita qonuniy vakillarining yordamlariga tayannishadi. Sudlarga ariza bilan murojaat qilish, turli darajadagi shartnoma va bitimlar tuzish kabi vaziyatlarda bu toifa shaxslar bevosita qonuniy vakillar xizmatiga ehtiyoj sezishadi. Qo'shimcha ehtiyojli shaxslarning muomala layoqatiga ega bo'lishlari natijasida ularning fuqaroviylar majburiyatlarini belgilanadi. Aytmoqchi bo'lganimiz, yosh faktori bu toifa shaxslar huquqiy maqomini belgilashda katta ta'sirga ega.

2. Nogironlik holatlarining muomala layoqati belgilanishida ta'siri; bu toifa shaxslarning qay darajadagi muomala layoqatiga ega bo'lishi bevosita ularning nogironlik holatlari bilan bog'liq. Shaxs ruhiy yoki aqliy nuqsonlari ta'sirida o'z xatti-harakatlari uchun

o'zi mustaqil javob berish layoqatiga ega bo'lmasa, ular sud tomonidan muomala layoqatiga ega emas deb topiladi.

3. Muomala layoqatining ayrim huquqlar yuzaga kelishida ta'siri; qo'shimcha ehtiyojli shaxslar 18 yoshda to'liq muomala layoqatiga ega bo'lishi bilan ularda saylovlarda ishtirok etish huquqi yuzaga keladi. Bu toifa shaxslarning muomala layoqatiga qisman bo'lsa-da ega bo'lishlari ularning davlat va jamiyat hayotida to'la huquqli subyekt sifatida ishtirok eta olish huquqiga ega bo'lishini kafolatlaydi. Nogironligi mavjud shaxslarning davlat va jamiyat ishlarida bevosita yoki bilvosita ishtirok eta olish imkoniga ega bo'lishlari ular huquqiy maqomining davlat tomonidan ta'minlanishi hamda muhofaza etilishini nazarda tutadi. Aynan mana shu jihat yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarning asosini tashkil etadi. Umumlashtirib aytganda, nogironligi mavjud shaxslarning bir qator huquqlarini amalga oshirish va yuridik majburiyatlarini bajarishda qonuniy vakillar orqali yo'lga qo'yilsa-da, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar muomala layoqatiga ega sanalishadi.

O'z-o'zidan anglashiladiki, huquq hamda muomala layoqati alohida e'tiborga muhtoj shaxslarning huquqiy maqomini belgilashda katta rol o'ynaydi. Jumladan, bu toifa shaxslarning ta'lim sohasi orqali jamiyat hayotiga integratsiya qilinishi aynan ularning huquqiy layoqatidan kelib chiqilgan holda amalga oshiriladi. Misol uchun, nogironligi mavjud o'quvchi talabalar ta'lim muassasalarida ta'lim olish huquqlarini amalga oshiradilar. O'qituvchi pedagoglar esa faoliyat majburiyatlarini bajaradilar. Bu jarayon nuqsonli shaxslar ta'limi bosqichidagi huquqiy munosabat tushunchasiga yaqqol misoldir. O'z navbatida, nogironligi bo'lgan shaxslarga oid huquqiy munosabatlar muhofaza qiluvchi hamda tartibga soluvchi kabi bir qator xususiyatlarni o'zida namoyon etadi.

REFERENCES

1. Zhigunova G.V. Yuvenal'naya invalidnost' v sisteme sotsial'noy real'nosti rossiyskogo obshchestva [Juvenile disability in the system of social reality of Russian society]. Moscow – Berlin, Direct-Media Publ., 2014, p. 174.
2. Yarskaya – Smirnova Ye.R. Sotsiokul'turnyy analiz netipichnosti [Sociocultural analysis of atypicality]. Saratov, SSTU Publ., 1997, p. 2.
3. Gaybatova K.D., Ortskhanova M.A. Yuridicheskoye znacheniye invalidnosti v Rossiyskom zakonodatel'stve [The legal significance of disability in Russian legislation]. Makhachkala, 2017, p. 1. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuridicheskoe-znachenie-invalidnosti-v-rossiyskom-zakonodatelstve>
4. Barinova G.V. Invalidnost' kak sotsial'nyy fenomen sovremennoy rossiyskogo obshchestva [Disability as a social phenomenon: modern Russian society]. Moscow, 2015, p. 25.
5. Islamov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, 2007, p. 625.
6. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. 2009, p. 323.
7. Usmonova M.A. O'zbekistonda keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoyalashning tashkiliy-huquqiy muammolari [Organizational and legal problems of social protection of the elderly and disabled in Uzbekistan]. Tashkent, 1995, p. 19.
8. Usova L.V. K voprosu ob interpretatsii ponyatiy "invalid" i "invalidnost'" [On the issue of interpretation of the concepts "disabled person" and "disability"]. Kuban, Kuban State University Publ., 2020, p. 98.
9. Murav'yova M.G. Kaleki, invalidy ili lyudi s ogranicennymi vozmozhnostyami? Obzor istorii invalidnosti [Crippled, Disabled, or People with Disabilities? A Review of the History of Disability]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/kaleki-invalidy-ili-lyudi-s-ogranichennymi-vozmozhnostyami-obzor-istorii-invalidnosti>
10. Murav'yeva M.G. Invalidy ili lyudi s ogranicennymi vozmozhnostyami [Disabled or handicapped people]. *The Journal of Social Policy Studies*, 2012, vol. 10, p. 157.
11. Il'ina N.V. Mezhdunarodno-pravovoe regulirovanie zashchity prav invalidov boevyh deystviy [International legal regulation of the protection of the rights of disabled people in military operations]. Moscow, 2009, p. 10.
12. Lindqvist B. Standard rules in the disability field – a new united nations instrument. Human rights and disabled persons: essays and relevant human rights instruments. DordrechtBoston-London, Martinus nijhoff Publ., 1995, p. 65.QUQ
13. Obzor voprosov i tendentsiy, kasayushhihsja uluchshenija polozhenija invalidov. Doklad General'nogo sekretarya OON [Review of issues and trends related to the improvement of the situation of persons with disabilities]. 2003, no. 265/2003/2, p. 4. Available at: <http://www.un.org/ru/documents/>
14. Implementation of the World Programme of Action concerning Disabled Persons: towards a society for all in the 21st century. Report of the Secretary-General. New York, United Nations, 2000. Available at: <https://digitallibrary.un.org/record/414720/>
15. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). United Nations, 2006. Available at: <https://www.un.org/disabilities/documents/convention/convoptprot-e.pdf>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Нуқуқија илмиy-amaliy журнал

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2025-yil 2-son

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.